



ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN ERTAKLARI VA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI

Muallif: Shomurodova Sitora Hoshim qizi ¹, Muratova Aziza Kamilovna ²

Affiliyatsiya: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Xalqaro Nordik universiteti¹,
O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti ²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15202262>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada A.S.Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida ertak" hamda "Shoh Saltan haqida ertak" asarlarining o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari o'xshash va mushtarak jihatlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, mazkur maqolada sayyor syujet, folklorizm, fantastik detallar kabi nazariy tushunchalar haqida tahlillar berilgan. Xalq og'zaki ijodining barcha xalqlar tarixiy taraqqiyotida muhimligi, ayni shu nuqtayi nazardan turli xalqlar og'zaki ijodida o'xshash fabulali asarlarning mavjud bo'lishi haqida ilmiy farazlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ertak, sayyor syujet, folklorizm, sehrli-fantastik tasvir, an'ana va novatorlik

Pushkin qisqa umri davomida kattalar uchun ham, bolalar uchun ham ulkan lirik va epik meros qoldira olgan olamshumul ahamiyatga ega adiblar sirasidandir. "Baliqchi va baliq haqida ertak" (1833) dostonida shoir pok muhabbat mangu bo'lishini orzu qiladi. Boylik, mansab deb o'tgan kunni unutmaslikni istaydi. Bundan tashqari, kimki halol peshona ter to'kib boylik orttirsam, bironlar hisobiga boyiydigan bo'lsa, bu boylik hech qachon yuqmasligini, bironniki bironnikiligicha qolib ketishini kampir qismati bilan chog'ishtirib hikoya qiladi. Yer yuzi, butun olam hukmroni bo'lib olgan kampir cholni mensimaganligi uchun ochko'z va badbaxtligicha qolib ketaveradi.

Baliq Sharq xalqlari adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham erk va qudrat, do'st va sadoqat ramzi sifatida qalamga olingan. O'zbek xalqida ham oltin baliq motivi yetakchilik qilgan. Qadimiy odamlar baliqni ham muqaddas bilib, unga sig'ingan. Shu bois baliq ertak qahramoniga aylangan. "Qalandar bilan Samandar", "Sohibjon bilan Ahmadjon", "Suhrob bilan Muzrob", "Sehrli baliq" ertaklari "Oltin baliq" motivi asosidagi ertaklarning variantlaridir. Oltin baliq mazkur ertaklarda bosh qahramonga yo'ldosh va ko'makdosh bo'lib, syujet chizig'ida mavjud epizodlar harakatini ta'minlaydi, yechimda hal qiluvchi vazifani bajaradi. U "Oltin baliq" ertagi va uning variantlarida baliqchining o'g'li tomonidan tutiladi va qo'yib yuboriladi.

Pushkinning bu ertagi rus folklori ta'sirida yaratilgan bo'lib, fantastik voqea-hodisalarni o'z ichiga oladi. Ertak baliqchi cholning oltin baliqni tutib olish voqeasi bilan boshlanadi:

Chol dengizga to'r solsa bir gal,
Baqa yaproq ilindi yolg'iz.
To'r solganda chol ikkinchi gal
Ilindi-ku dengiz o'landi.
To'r solganda chol uchinchi gal,
To'rga tushdi bir kichik baliq...

Ushbu tasvirdan ko'rishimiz mumkinki, ertakda xalq og'zaki ijodi motivlari yetakchilik qiladi. Xalq ertaklarida ham uch, yetti, to'qqiz, qirq kabi raqamlar muqaddas hisoblanib, ayni shu raqamlar orqali qahramonning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Yuqoridagi tasvirda ham baliqchi chol uch marta to'r solganda, uchinchi martasida oltin baliq ilinadi. Shu tariqda oltin baliqqa bosqichma-bosqich tarzda talablar, shartlar qo'yila boshlanadi. Umuman, "Baliqchi va baliq haqida ertak" insoniyat ehtiyojlarining chek-chegara bilmasligi haqida hikoya qiluvchi asardir.

Ammo shu jihatga ham e'tibor qaratish lozimki, ertakda chol sofdil, samimiy, ochiqko'ngil bir inson sifatida tasvirlangan bo'lsa, uning turmush o'rtog'i esa, aksincha, ochko'z, xudbin va moddiy manfaatlarni har qanday ma'naviy fazilatdan ustun qo'yadigan inson timsolidir. Chol ilk bor oltin baliqqa duch kelganida uni hech bir shartlarsiz, dengizga qo'yib yuboradi:

"Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,
Kerak emas menga to'loving,
Mayli, tushgil moviy dengizga,
Erkin-erkin o'ynab yuraver!"

Cholning bu gaplarini eshitgan kampirning fig'oni falakka chiqadi va shu syujet chizig'idan boshlab baliqdan bir-biridan ulkan to'lovlar talab qila boshlaydi. Ayni shu tasvirlarda cholning ham, kampirning ham ma'naviy qiyofasi namoyon bo'lib borar ekan, asarni o'qiyotgan o'quvchi cholga qanchalik achinib, hamdard bo'lsa, kampirning kurakda turmas qiliqlaridan shu qadar g'azablanadi. Shoir o'quvchini o'zining mohir poetik tili, so'zlarning o'z o'rnida qo'llangani va tasvirning haqqoniyligi bilan ertakka jalb qilib oladi. Bu ertakni har birimiz bolaligimizda o'qiganmiz va o'zimizga yarasha xulosa olganmiz. Yosh o'quvchilar mazkur ertak bilan tanishar ekanlar, ochko'zlik insonni halokatga yetaklaydigan muqarrar qusur ekanini anglaydilar. Ertak so'ngida kampirning yana hech narsasiz qolishi unga berilgan eng oliy jazodir, aslida. Chunki dunyoni faqat moddiy boyliklar bilan qarichlaydigan insonlar boyliksiz qolishni eng oliy jazo deb biladilar.

Bitta so'z ham demadi baliq,
Suvga urib dumini faqat,
G'oyib bo'ldi dengiz tagiga.
Javob kutib turdi sho'rlik chol,
Uzoq qolib dengiz bo'yida.
Qaytdi kampir yoniga axir,
Ko'rsa: tag'in o'sha yerto'la,

Bo'sag'ada o'tirar kampir,
Qarshisida teshik tog'ora.

Ushbu xotima kampirning so'nggi istagi – dengiz ostida hukmronlik qilish xohishi oltin baliqning-da sabr kosasini to'ldiradi. Va yuqoridagi tasvirda berilganidek, kampirni eski holatida qoldirish qaroriga keladi. Bunday xotima o'quvchini sergaklikka, uyg'oqlikka chaqiradi. Umuman olganda, "Baliqchi va baliq haqida ertak" xalq og'zaki ijodining motivlaridan ozuqa olgan holatda Pushkinning iste'dodi natijasi o'laroq dunyoga kelgan yirik adabiy hodisadir. "Baliqchi va baliq haqida ertak" o'zbek shoiri Mirtemir tarjimasida o'zbek kitobxonlarining ham sevimli asariga aylanib ulgurgan.

"Shoh Saltan haqida ertak"ning bolalar dunyoqarashi rivojidadagi o'rni. Bu ertakning to'liq nomi "Shoh Saltan, uning ulug'vor va qudratli o'g'li shahzoda Gvidon Saltanovich va go'zal oqqush malika haqidagi ertak" bo'lib, bu asarda Pushkin insonlarning yomonliklari ham, yaxshiliklari ham ularning o'ziga bir kuni, albatta qaytadi degan g'oyani ilgari surgan.

Asar yosh qizlarning sof orzularini bir-birlariga aytib berish sahnasi bilan boshlanadi. Shu o'rinda muallif so'zning tengsiz qudratga egaligi, u aytildimi, albatta, ro'yobga chiqishga mahkumligiga ishora qiladi. Chunki har uchala opa-singil o'zlari aytgan orzulariga erishadilar. Uch opa-singil agar ular malika bo'lib qolsa, nimalar qilishi haqida bahslashar ekan, kattasi tikuvchi, o'rtnachasi oshpaz bo'lishini bayon qiladi. Kenja qiz esa:

Men malika bo'lsaydim,
Shohimizga pahlavon,
Tug'ib berardim o'g'lon.¹

deya orzu qiladi va pirovardida maqsadiga ham erishadi. Ayni shu o'rinda muallif har qanday pokiza niyat, u boshqalarga xalal bermagan taqdirda amalga oshishi mumkin degan fikrga ishora qilgan. Asarda Shoh Saltan fe'li keng, saxiy bir inson timsolida gavdalangan. Malika ham har tomondan podshohga munosib, aqlli, ziyrak, samimiy. Ammo uning ikki opasi singlisining baxtini ko'ra olmaydigan darajada hasadgo'y. Shu bois podshoh safardaligida unga yolg'onlarga to'la maktub yozishadi va podshohning javob maktubini ham qalbakilashtirishadi. Xuddi shu syujet o'zbek xalq og'zaki ijodining yetuk namunalaridan biri bo'lgan "Rustamxon" dostonida ham uchraydi. Bu dostonida ham Sultonxon ismli podshoh uzoq safarda vaqtida uning vazirlari malika Huroyimga qarshi yolg'on-yashiqqa to'la maktub yozadi. Bu xususiyat safar va bo'htonli maktub voqeasini sayyor syujet sifatida baholashimizga asos bo'ladi.

Sayyor syujet – bu xalq og'zaki ijodi yoki yozma adabiyotdagi badiiy asarlarda doimo uchraydigan, ko'chib yuradigan syujet turidir. Masalan, farzandsiz ota, o'gay ona, uzoq safar, safardagi turli qiyinchiliklar va shunga o'xshash syujetlar sayyor bo'lib, bir qancha badiiy asar tarkibida kelishi mumkin.

Yuqorida tilga olganimiz uzoq safardagi insonga bo'htonli maktub yuborish syujeti "Rustamxon" dostonida ham, "Shoh Saltan haqida ertak"da ham kelmoqda. Yana

¹ Pushkin S.A. Shoh saltan haqida ertak. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 5-bet.

bir e'tiborli jihat har ikki asardagi hukmdorning nomlaridagi o'xshashlikdir. Saltan – Sulton. Aytilishi, undoshlari bir xil bo'lgan bu ismlar tasodifan o'xshash emas, albatta. Chunki Pushkin xalq og'zaki ijodini chuqur o'rgangan, Sharq va G'arb xalqlari folkloridagi mushtaraklik ham tasodifiy emas. Shu bois biz ushbu ertakni "Rustamxon" dostoni bilan parallel ravishda qiyosiy tahlil qilsak, masala yana ham oydinlashadi.

"Shoh Saltan haqida ertak"dagi – mulohazali va o'ylab ish qiladigan shaxs. Shu bois u yolg'onchi opalar maktubini olarkan, safardan qaytgandan so'ng bir qaror qabul qilishini aytib javob xati bitadi:

Osmoq bo'lar choparni;
Lekin rahm etar bu gal:
"O'zim borib qilgum hal,
Kutsin, - der, - qaytishimni,
Va hukm aytishimni".²

Ammo ichiqora opalar bu xatni o'zgartirib, Malika va uning o'g'li shahzoda Gvidonni bochkaga solib dengizga uloqtirishadi. "Rustamxon" dostonida bu tasvir sal boshqacharoq: dushmanlari Huroyim va o'g'li shahzoda Rustamxonni tulup (tuya terisidan qilingan qop) ga joylab, sahroga tashlashadi. Sahroga, yoki suvga tashlanish syujeti ham turli xalqlarda turlicha holatda uchraydi.

Bochkadan eson-omon qutulib olgan ona-bola kambag'al, ammo baxtli holatda hayot kechira boshlashadi. Shahzoda gvidon bir oqqushni kalxatdan qutqarib qoladi. Oqqush esa undan minnatdor holatda shunday deydi:

Ey mening xaloskorim,
Azamat, jig'adorim,
Qayg'urma mening uchun,
Och qolaman deb uch kun.
...Yaxshiliging bilaman,
Keyin xizmat qilaman...³

Alqissa, sehrlangan Oqqush Malika tomonidan Shahzoda Gvidonga ulkan sovg'akar beriladi. Qizni qutqarish sahnasi "Rustamxon" dostonida ham mavjud. Unda Oftoboy ismli qizni ajdarho yemoqchi bo'lganda, Rustamxon ajdarni o'ldirib, qizni qutqaradi. Har ikki asarda ham qizning hayotini qutqarish sahnasi mavjudki, bu ajdodlarimizning doimo ojizlarga yordam berishga intilganidan dalolatdir.

"Shoh Saltan haqida ertak"da shahzoda Gvidonning boshdan kechirganlari o'quvchini kitobga mixlaydi, badiiy tasvirlar, ertakdagi kutilmagan burilishlar yozuvchining naqadar mahoratli bo'lganiga dalildir. Bu asarning tarbiyaviy ahamiyati ham juda keng ko'lamli bo'lib, o'quvchilar qalbida ezgulikka havas va muhabbatni, yozuvlikka nafratni uyg'otadi. Bu ertak bilan tanishgan har bor bola bu dunyoda

² Pushkin S.A. Shoh saltan haqida ertak. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 6-bet.

³Pushkin S.A. Shoh saltan haqida ertak. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 11-bet.

insonning o'ziga qiladigan eng katta yaxshiligi, aslida boshqalarga qilgan yaxshiligi ekanligini anglaydi.

Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi baytlari bu boradagi fikrimizga dalildir:

Naf'ing agar elga beshakdurur,

Bilki, bu naf' o'zingga ko'prakdurur.

Ya'ni, sen odamlarga naf keltiradigan ishlarni bajarar ekansan, aslida bu naf, bu foyda sening o'zingga ko'proq bo'lib qaytadi.

Pushkinning yuqoridagi ertagi ham ayni shu fikrlarga hamohang tarzdagi xulosalarni har bir o'quvchiga taqdim eta oladi.

«Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak»dagi (1831) Pop obrazini shoir juda mahorat bilan ko'rsatib berdi. Tekinxo'r, ochko'z, o'zgalar hisobiga umr kechiradigan pop, aslida pastkash kimsa ekanligini keskin ochib tashlaydi. Unga qarama-qarshi obraz – oddiy va halol, mehnatkash va bahodir yigit Balda obrazini ijod cho'qqisiga ko'taradi.

A.S.Pushkin bolalarning ona Vatanga, tabiatga, odamlarga mehr-muhabbatini oshiradigan ko'plab she'rlar yozdi. "Qish ertasi", "Dengizcha", "Men yana keldim", "Enagamga", "Bulut", "Anchar", "Tutqun" kabi she'rlar shular jumlasidandir. Pushkinning ertaklari bolalar tasavvurini kengaytirishga, tafakkuridagi turli bo'shliqlarni to'ldirishga yordam bersa, uning she'rlari tuyg'ularning sof va rost holatda saqlab qolish uchun muhim ko'makchi vazifasini bajaradi.

Xulosa shuki, Aleksandr Sergeyevich Pushkin o'zining serko'lam ijodi bilan nafaqat, rus xalqi adabiyotida, balki, jahon adabiyotida ham o'z o'rniga ega bo'lgan serqirra ijodkordir. Uning kattalar uchun yozgan asarlarida ham, bolalar uchun yaratgan ertak yoki she'rlarida ham insonni insonday yashashga undash va ezgulik motivini olg'a surish g'oyasi yetakchilik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pushkin S.A. Shoh saltan haqida ertak. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 155.
2. Shomurodova, S. (2024). Yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda badiiy adabiyotning o'rni. Nordic_Press, 3(0003).
3. Muratova, A. (2024). AFSONALARNING JANR XUSUSIYATLARI. Nordic_Press, 3(0003).
4. Nasriddinov, D. (2024). HISTORICAL GENESIS OF FANTASY: MYTHS, FAIRY TALES AND KNIGHTY NOVELS: Genres. Nordic_Press, 3(0003).